

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor,
Samarqand xalqaro texnologiya universiteti
prorektori

Rasulova Maftuna Nasimboy qizi,
Samarqand pedagogik mahorat markazi katta
o'qituvchisi, Samarqand davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

PEDAGOGIK FAOLIYATDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHNING YANGI IMKONIYATLARI: "O'QITUVCHI JOMADONI" KONSEPSIYASI MISOLIDA

UOK: 371.13

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_2_1](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_2_1)

IBRAGIMOV A.A., RASULOVA M.N.-Q. PEDAGOGIK FAOLIYATDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHNING YANGI IMKONIYATLARI: "O'QITUVCHI JOMADONI" KONSEPSIYASI MISOLIDA

Maqolada pedagogik faoliyatda uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta'minlashning yangi imkoniyatlari "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasi misolida tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan metodik, didaktik, raqamli va refleksiv resurslarni tizimli ravishda jamlashning nazariy asoslari o'rganildi hamda ularning ta'lim amaliyotidagi ahamiyati yoritildi. Shuningdek, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashning samarali mexanizmi sifatida "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasi taqdim qilingan.

Tayanch so'z va tushunchalar: o'qituvchi jomadoni, hujjatlar yig'ma jildi, metodik vositalar, shaxsiy rivojlanish vositalari, samarali vositalar, raqamli texnologiyalar.

ИБРАГИМОВ А.А., РАСУЛОВА М.Н.-К. НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: НА ПРИМЕРЕ КОНЦЕПЦИИ «ЧЕМОДАН УЧИТЕЛЯ»

В статье анализируются новые возможности обеспечения непрерывного профессионального развития в педагогической деятельности на примере концепции «Чемодан учителя». В ходе исследования были изучены теоретические основы систематизации методических, дидактических, цифровых и рефлексивных ресурсов, необходимых в профессиональной деятельности учителя, а также раскрыта их значимость в образовательной практике. Кроме того, концепция «Чемодан учителя» представлена как эффективный механизм обеспечения непрерывного профессионального развития педагогов.

Ключевые слова и понятия: чемодан учителя, профессиональное портфолио, методические средства, средства личностного развития, эффективные ресурсы, цифровые технологии.

IBRAGIMOV A.A., RASULOVA M.N.-K. NEW OPPORTUNITIES FOR CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT IN PEDAGOGICAL ACTIVITY: THE CASE OF THE "TEACHER'S TOOLKIT" CONCEPT

This article analyzes new opportunities for ensuring continuous professional development in pedagogical activity through the example of the "Teacher's Toolkit" concept. In the course of the study, the theoretical foundations of systematically integrating methodological, didactic, digital, and reflective resources essential for teachers' professional activity were examined, and their significance in educational practice was highlighted. In addition, the "Teacher's Toolkit" concept is presented as an effective mechanism for supporting teachers' continuous professional development.

Key words and concepts: teacher's toolkit, professional portfolio, methodological tools, personal development tools, effective resources, digital technologies.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, milliy o'quv dasturlarining yangilanishi, kompetensiyaviy yondashuv asosida dars berish zarurati, o'qituvchining kasbiy rivojlanishini muntazam tashkil etish muhimligini yana bir bor ta'kidlamogda. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"¹da uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish kabi vazifalar ijrosini ta'minlash uchun zamonaviy model zarurati tug'iladi.

Tadqiqotning maqsadi — pedagogik faoliyatda o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasining mazmuni, imkoniyatlari va amaliy ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash, ushbu konsepsiyaning o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rnini aniqlash hamda uni ta'lim amaliyotiga samarali joriy etish yo'llarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Pedagogik faoliyatda uzluksiz kasbiy rivojlanish tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish hamda "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasining mazmuni va tuzilmasini aniqlash.

2. "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasini ta'lim amaliyotida qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiq va tahlil. Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat o'z fanini mukammal bilishni, balki uni o'quvchilarga samarali yetkazish, ularni mustaqil fikrlashga undash, kreativ tafakkurni shakllantirish hamda hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishni ham talab etadi. Bu esa o'qituvchining kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishini, o'z faoliyatiga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishi zaruriyatini anglatadi.

Innovatsion yondashuvlar o'qituvchiga o'z faoliyatida kreativ metodlardan foydalanish, darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, shuningdek, o'z ustida uzluksiz ishlash imkonini beradi. Shu bois o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash nafaqat zamon talabi, balki ta'lim sifatini yuksaltirishning eng muhim sharti sifatida qaraladi.

Bu yo'nalishdagi dastlabki nazariy tadqiqotlardan biri Fraser, Kennedy, Reid va McKinney² ishlari bo'lib, ularda CPD tushunchasining mazmuni, shakllari va modellari tizimli ravishda tahlil qilingan. Mualliflar CPDni rasmiy malaka oshirish, norasmiy o'rganish va o'qituvchining kundalik faoliyati bilan uzviy bog'liq reflektiv jarayon sifatida yoritib, uning samaradorligi o'qitish amaliyoti bilan bog'liqligiga bevosita aloqador ekanligini asoslab beradilar.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

² Fraser C., Kennedy A., Reid L. & McKinney, S. (2007). Teachers' continuing professional development: contested concepts, understandings and models.

Amerikalik olim Linda Darling-Hammond va Learning Policy Institute¹ tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlarda samarali uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlarining asosiy xususiyatlari aniqlangan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, samarali CPD uzoq muddatli, amaliyotga yo'naltirilgan, hamkorlikka asoslangan va mentorlik hamda refleksiyaning o'z ichiga olgan bo'lishi lozim. Ushbu tadqiqotlarda CPDning o'qituvchilar pedagogik mahoratiga, shuningdek, o'quvchilar o'zlashtirish natijalariga ijobiy ta'siri ilmiy asosda isbotlangan.

H.Talafian² va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda CPD jarayonlari "amaliy hamjamiyat" (Community of Practice) yondashuvi asosida o'rganilgan. Bu yondashuvga ko'ra, o'qituvchilarning o'zaro hamkorligi, tajriba almashishi va jamoaviy muammolarni hal etishi kasbiy rivojlanishning muhim manbai hisoblanadi. Tadqiqot natijalarida bunday hamkorlikka asoslangan CPD shakllari o'qituvchilarning motivatsiyasi va pedagogik faolligini oshirishi aniqlangan.

Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda malaka oshirish kurslarining mazmuni va ularning amaliy yo'naltirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ibragimov A.A. va Fayzullayeva G.Sh.³ o'z tadqiqotlarida malaka oshirish kurslarida amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, ularni puxta loyihalashtirish hamda turli pedagogik metodlardan foydalanish orqali nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish mumkinligini ta'kidlaydilar. Mualliflarning fikricha, bunday yondashuv ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasining metodik komponenti bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda o'qituvchi tomonidan amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari, metodik tavsiyalar, dars loyihalari va kasbiy tajriba namunalarini tizimli ravishda jamlash nazarda tutiladi. Natijada o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatini takomillashtirish, mavjud bilim va ko'nikmalarni amaliyotda samarali qo'llash

hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

"O'qituvchi jomadoni" atamasi to'g'ridan-to'g'ri shu nom bilan xorijiy adabiyotlarda uchramaydi, biroq uning mazmuniga to'liq mos keladigan yondashuvlar ko'plab rivojlangan davlatlarda keng qo'llanilgan. Xususan, bu atama boshqa mamlakatlarda asosan "Teaching Portfolio"⁴, "Teacher Toolkit"⁵, "Teachers' Professional Toolkit", "Digital Teaching Portfolio" yoki "e-Portfolio"⁶ nomlari ostida joriy etilgan.

Bugungi kunda pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga qaratilgan tashabbuslar, ko'p hollarda markazlashgan, nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, amaliyotda ularning individual ehtiyojlariga to'liq mos kelmasligi mumkin. Shu nuqtai nazardan, har bir o'qituvchining ehtiyoj va qiziqishlariga mos, ularning mustaqil o'rganishi, tajriba almashishi va kasbiy o'sishi uchun moslashuvchan sharoit yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur ehtiyojdan kelib chiqqan holda, "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasi taklif etilmoqda. Bu konsepsiya o'qituvchining kasbiy faoliyatini qulay tashkil etishga xizmat qiladigan, amaliy resurslar, metodik tavsiyalar, zamonaviy yondashuvlar va shaxsiy rivojlanish vositalarini jamlagan tizimli jarayondir. U maktab ichida o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, kasbiy o'sishni ichki resurslar asosida tashkil etish va har bir pedagog uchun real natijaga yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratishga qaratilgan. "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasi pedagoglarning maktab sharoitida uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda yangi yondashuv bo'lib xizmat qiladi. U individuallashtirilgan, raqamli va an'anaviy formatlarda qo'llash mumkin bo'lgan, moslashuvchan va amaliyotga yo'naltirilgan resurs sifatida taqdim etiladi.

O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlikning innovativ modeli – "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasi

1-bob. Umumiy qoidalar.

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida (keyingi o'rinlarda – Markaz) o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlikning innovativ modeli – "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasi (keyingi

¹ Darling-Hammond L., Hyler M.E. & Gardner M. (2017). Effective teacher professional development. Learning Policy Institute.

² Talafian H., et al. (2023). Responsive professional development through communities of practice. Physical Review Physics Education Research

³ Ibragimov A.A., Fayzullayeva G.Sh. Malaka oshirish kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SVTXQTMOHM, 2020.

⁴ Seldin P. The Teaching Portfolio. 2010

⁵ <https://www.teachertoolkit.co.uk/>

⁶ Development E-Portoqu: A Validated Digital Portfolio that Improves Vocational Teachers' Performance. D. Iskandar, A.Hasani, H.Hidayatullah. Journal of Education Analytics. DOI: <https://doi.org/10.55927/jeda.v4i3.391>

o'rinlarda – Konsepsiya) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"¹ PQ-231-son Qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, pedagog va mutaxassis xodimlarning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratlarini uzluksiz oshirib borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish yuzasidan amaliy metodik yordam tizimini yaratish uchun ishlab chiqilgan.

Ushbu Konsepsiyada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

o'qituvchi jomadoni – o'qituvchining kasbiy rivojlanishi, metodik salohiyati va darsga tayyorgarlik samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy-uslubiy resurslar to'plami;

hujjatlar yig'ma jildi – o'qituvchining kasbiy faoliyatiga oid zaruriy hujjatlar, shakllar va andozalar jamlanmasi;

metodik vositalar – darsni samarali tashkil etish, turli metod va yondashuvlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan uslubiy materiallar to'plami.

shaxsiy rivojlanish vositalari – o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'sishi uchun mo'ljallangan, refleksiya, o'z-o'zini baholash va rejalashtirish faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

samarali vositalar – fanlararo integratsiyani ta'minlovchi, turli darslarda umumiy ishlatilishi mumkin bo'lgan ko'rgazmali, didaktik yoki amaliy predmetlar jamlanmasi;

raqamli texnologiyalar – o'qituvchining dars jarayonida zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish malakasini oshiruvchi texnologiyalar.

2-bob. Mashg'ulotlarga tayyorgarlikning joriy holati va mavjud muammolar.

Pedagogik mahorat markazida o'qituvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi umumiy o'rtacha holda baholanadi. Ko'pchilik o'qituvchilar dars ishlanmasini tayyorlab kelishadi, ammo ularning aksariyati andozaviy shaklda bo'lib, zamonaviy talablarga to'liq mos kelmaydi.

Dars maqsadlarini aniq belgilash, ularni tinglovchilarning kompetensiyalariga yo'naltirishda

muayyan qiyinchiliklar kuzatiladi. Aksariyat dars rejalari tinglovchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va ehtiyojlarini inobatga olmagan holda tuziladi.

Tashkillashtirilayotgan darslarda innovatsion metodik yondashuvlar, jumladan, kompetensiyaviy, integrativ yoki differensial yondashuvlar, ko'p qo'llaniladi, biroq tizimlashtirilmagan. Shu sababli, ko'proq an'anaviy metodlar (ma'ruza, savol-javob, frontal suhbat) ustunlik qiladi.

Didaktik materiallar, grafik organayzerlar, interaktiv topshiriqlar va muqobil baholash vositalari darslarda yetarli darajada qo'llanilmaydi. Multimediya resurslar (prezentatsiyalar, videoroliklar, raqamli o'yinlar) mavjud bo'lsa-da, ulardan foydalanish darajasi past.

Refleksiya vositalari, ya'ni o'qituvchining darsdan keyin o'z faoliyatini tahlil qilishi, baholashi va xulosa chiqarishi amaliyotda kam qo'llaniladi.

3-bob. Konsepsiyasining maqsad va vazifalari.

Quyidagilar o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlikning innovativ modeli – "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasining maqsadlari hisoblanadi:

markazda "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasini targ'ib etish orqali o'qituvchilarning darsga tayyorgarlik samaradorligini oshirish, metodik mustaqilligini shakllantirish va zamonaviy resurslardan foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirish;

o'qituvchilarga ularning kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan amaliy va metodik predmetlarni tizimlashtirib, ularga moslashuvchan, qulay foydalaniladigan "jomadon" shaklida taqdim etish;

ushbu "jomadon"ni maktab amaliyotiga transformatsiya qilib, har bir ta'lim muassasasida o'qituvchilar o'rtasida samarali metodik hamkorlik, o'zaro tajriba almashish va professional rivojlanish madaniyatini shakllantirish.

"O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasining vazifalari:

o'qituvchining kundalik faoliyatida zarur bo'lgan hujjatlar, shakllar va namunalarni tayyorlash;

pedagogik texnologiyalar, zamonaviy metodlar, innovatsion yondashuvlar to'plamini taqdim etish;

kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mini-trening va mashqlarni ishlab chiqish;


darsda qo'llash mumkin bo'lgan universal predmetlar jamlanmasini yig'ish;

har bir o'qituvchiga o'zining "jomadoni"ni shakllantirishga yordam berish;

jomadon tarkibiga kiradigan materiallar: konseptlar, interaktiv dars ishlanmalari, vizual vosita-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-231-son Qarori.

1-rasm. “O’qituvchi jomadoni”ning tarkibiy tuzilmasi.



lar, baholash mezonlari, shaxsiy rivojlanish rejalari kabi resurslar bilan ishlashni o’rgatish;

turli fanlar va bosqichlarga mos “jomadon” namunalarini ishlab chiqish;

raqamli va bosma formatlarda foydalanish imkonini beruvchi moslashuvchan model yaratish.

4-bob. Tarkibiy tuzilma va amalga oshirish mexanizmi.

Belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, “O’qituvchi jomadoni”ning tarkibiy tuzilmasi (1-rasm) belgilab olindi:

a) o’quv me’yoriy bo’lim – o’qituvchining kasbiy faoliyatiga oid zaruriy hujjatlar, shakllar va andozalar jamlanmasi:

- dars ishlanmalari namunolari;
- yillik va oylik rejalashtirish blankalari andozalari;
- tahlil va monitoring shakllari;

b) metodik vositalar bo’limi – darsni samarali tashkil etish, turli metod va yondashuvlardan foydalanish uchun zarur bo’lgan uslubiy materiallar jamlanmasi:

- ta’lim metodlari katalogi;
- o’yinli, ko’rgazmali va interaktiv usullar namunolari;

d) shaxsiy rivojlanish bo’limi – o’qituvchining shaxsiy va kasbiy o’sishi uchun mo’ljallangan, refleksiya, o’z-o’zini baholash va rejalashtirish vositalari jamlanmasi:

- kasbiy va universal ko’nikmalar mashqlari;

- refleksiya va vaqt-boshqaruvi vositalari;

e) samarali vositalar bo’limi – fanlararo integratsiyani qo’llab-quvvatlovchi, turli darslarda umumiy ishlatilishi mumkin bo’lgan ko’rgazmali, didaktik yoki amaliy vositalar jamlanmasi:

- ko’rgazmali materiallar, o’yinchoqlar, real predmetlar;

• o’quvchilar kundalik hayotda duch keladigan narsalarni jamlash va ta’lim jarayoniga bog’lovchi tushunchalar;

• har bir materialning darsdagi qo’llanishi, metodik izohi yozilgan maxsus yon daftarchalar;

f) raqamli texnologiyalar bo’limi – o’qituvchi dars jarayonida foydalanadigan zamonaviy raqamli texnologiyalar jamlanmasi:

- yuqoridagi bloklarda tayyorlangan barcha materiallarning QR kodli to’plami;

• o’qituvchilar darsda va darsga tayyorgarlik jarayonida foydalanishiga qulay bo’lgan onlayn platformalar, mobil ilovalar ro’yxati;


- tayyor Canva, Google Form va PowerPoint andozalari.

“O’qituvchi jomadoni”ni amaliyotga kiritish mexanizmi

“O’qituvchi jomadoni” konsepsiyasini samarali amalga oshirish quyidagi bosqichli va tizimli mexanizm (2-rasm) asosida tashkil etiladi:

Tayyorlov bosqichi. Markaz jamoasi o’rtasida konsepsiya mazmuni bilan tanishtirish, ilmiy ken-

2-rasm. O'qituvchi jomadonini amaliyotga kiritish mexanizmi.



gashlarda muhokama qilish, o'qituvchilarning ehtiyojlarini aniqlash bo'yicha so'rovnoma o'tkaziladi.

Modelni yaratish bosqichi: "Jomadon"ning Markaz missiyasiga mos formatda dizayni ishlab chiqiladi. Har bir yo'nalish (metodik vositalar, shaxsiy rivojlanish, hujjatlar va h.k.) bo'yicha tarkib tanlanadi.

Sinovdan o'tkazish bosqichi: 2-3 nafar tashabbuskor o'qituvchi tomonidan jomadondan foydalanish bo'yicha mahorat darslari o'tkaziladi. Fikr-mulohazalar yig'ilib, zarur tuzatishlar kiritiladi.

Joriy qilish bosqichi. Jomadon barcha o'qituvchilarga taqdim etiladi. Ularga foydalanuvchi yo'riqnomasi, namunaviy foydalanish ssenariylari, mini-treninglar orqali metodik yordam ko'rsatiladi.

Maktab amaliyotiga ko'chirish bosqichi. Jomadonda nazarda tutilgan barcha nazariy asos va metodik vositalarni real maktab muhitida sinovdan o'tkazish, moslashtirish va barqaror amaliyotga aylantirish.

Monitoring va takomillashtirish bosqichi: Har chorakda o'qituvchilar tomonidan jomadondan foydalanish holati o'rganiladi. Yangi metodik vositalar, interaktiv resurslar bilan boyitiladi.

Markaz direktori va akademik faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha direktor o'rinbosari konsepsiya ijrosini tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Har bir kafedra mudiri o'z yo'nalishi bo'yicha

jomadon bo'limlarini shakllantirish, yangilash, tajriba almashish uchun mas'ul etib belgilanadi. Har bir pedagog o'ziga mos materiallar, metodik tavsiyalar va vositalarni tanlab, o'z "jomadoni"ni shaxsiylashtiradi. Bu orqali o'qituvchi o'zining individual uslubini, tinglovchilarining ehtiyojini inobatga olgan holda, kasbiy o'sishni mustaqil boshqaradi.

5-bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar.

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali Samarqand viloyat pedagogik mahorat markazi professor-o'qituvchilarining o'quv jarayonlariga tayyorgarligini mustahkamlash uchun "O'qituvchi jomadoni"ni targ'ib qilish asosida quyidagi natijalarga erishish nazarda tutiladi:

- o'qituvchining darsga tayyorgarligida zamonaviy metodik vositalar, ishlanma andozalari, differensial yondashuvlar va fanlararo integratsiya usullaridan foydalanishini yo'lga qo'yadi. "Jomadon" orqali o'qituvchi har bir dars uchun tayyor amaliy vositalar to'plamiga ega bo'ladi. Darsga tayyorgarlik sifati oshadi, resurslardan samarali foydalanish ortadi;

- har bir o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va shaxsiy kasbiy rivojlanish yo'lini belgilashga o'rganadi;

- “Jomadon” faqat individual resurs emas, balki hamkasblar bilan tajriba almashish, birgalikda faoliyat yuritish uchun ham “amaliy vosita” sifatida xizmat qiladi. O’qituvchilar orasida “Jomadonlar almashinuvi”, ochiq darslar, metodik ko’rgazmalar tashkil qilish jarayoni jadallashadi;

- malaka oshirish kurslarida ishtirokchilar faol, ijodkor, amaliy ishga yo’naltirilgan bo’ladi;

Markazda egallangan bilim va ko’nikmalarni maktab sharoitiga moslashtirish orqali o’qituvchilar o’z maktabida “jomadon” modelini joriy qilish, boshqalarga targ’ib qilish va maktabning ichki kasbiy rivojlanish tizimiga kiritish imkoniyatiga ega bo’ladi. Maktablarda pedagoglarning o’zaro metodik tajriba almashinuvi kuchayadi.

“O’qituvchi jomadoni” pedagogik madaniyatning bir qismi sifatida shakllanadi.

Natijalar va xulosa.

Tadqiqot jarayonida pedagogik faoliyatda uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta’minlashda “O’qituvchi jomadoni” konsepsiyasining imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Ilmiy manbalar

tahlili va pedagogik tajribalar umumlashtirilishi natijasida ushbu konsepsiya o’qituvchining kasbiy faoliyatida zarur bo’lgan metodik, didaktik, raqamli va refleksiv resurslarni tizimli ravishda jamlashga xizmat qilishi aniqlandi.

“O’qituvchi jomadoni” o’qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish hamda ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Konsepsiya asosida tashkil etilgan kasbiy rivojlanish jarayoni o’qituvchining mustaqil o’rganishi, o’z tajribasini tahlil qilishi va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etishiga sharoit yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, “O’qituvchi jomadoni” konsepsiyasini pedagoglarning malaka oshirish tizimiga va ta’lim amaliyotiga joriy etish pedagogik faoliyatda uzluksiz kasbiy rivojlanishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos, raqobatbardosh o’qituvchini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” PQ-231-son Qarori.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5712-son Farmoni.
3. Darling-Hammond, L., Hyler, M. E., & Gardner, M. (2017). *Effective Teacher Professional Development*. Learning Policy Institute.
4. Development E-Portoqu: A Validated Digital Portfolio that Improves Vocational Teachers’ Performance. Iskandar, D., Hasani, A., & Hidayatullah, H. (Journal of Education Analytics). <https://doi.org/10.55927/jeda.v4i3.391>
5. Fraser, C., Kennedy, A., Reid, L., & McKinney, S. (2007). Teachers’ continuing professional development: contested concepts, understandings and models. *Journal of In-Service Education*, 33(2), 153–169. <https://doi.org/10.1080/13674580701292913>
6. Ibragimov, A. A., & Fayzullayeva, G. Sh. (2020). *Malaka oshirish kurslarida amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish va o’tkazish*. Uslubiy qo’llanma. Samarqand: SVXTXQTMOHM.
7. Seldin P. (2010). *The Teaching Portfolio*.
8. Talafian, H., et al. (2023). Responsive professional development through communities of practice. *Physical Review Physics Education Research*.
9. <https://www.teachertoolkit.co.uk/>